**SURXONDARYO VILOYATI UZUN TUMANI HOKIMINING**

# QARORI

2024-yil 2-avgust | 257-8-118-Q/24 | Uzun tuman hokimligi

## Uzun tumanining sanoat salohiyatini oshirish hamda sanoat korxonalari bilan ishlashnning monitoring tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida

Uzun tumanida sanoat salohiyatini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarni tahlil qilib borish, sanoat korxonalarining uzluksiz faoliyati yuritishini ta’minlash va mavjud ish o‘rinlarini saqlab qolish, sanoat korxonalari oldida turgan dolzarb muammoli masallarni tizimli hal etish hamda doimiy monitoring tizmini ta’minlash maqsadida,

**QAROR QILAMAN:**

1. Tuman bo‘yicha sanoat salohiyatini oshirish hamda sanoat korxonalari bilan ishlashnning monitoring tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha namunaviy ishchi guruhi tarkibi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Ishchi guruh tomonidan quyidagilar amalga oshiriladi:

- sanoat korxonalarining joriy holatini tahlil qilib boradi;

- sanoat korxonalari oldida turgan dolzarb muammolarni o‘rganib, ularning yechimi yuzasidan tuman-viloyat-respublika kesimida takliflar ishlab chiqadi;

- tumandagi sanoat korxonalarining uzluksiz faoliyat yuritishi va mavjud ish o‘rinlarini saqlab qolish bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqadi va amalga oshirilishini ta’minlaydi;

- past quvvatda ishlayotgan sanoat korxonalari (shu jumladan, tijorat banklari kredit mablag‘lari hisobidan ishga tushirilgan korxonalar) mavjud quvvatlaridan samarali foydalnish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

- sanoat korxonalarining muhandislik-kommunikatsiya tizimlari (elektr energiya va gaz ta’minot, ichimlik suvi ta’minoti va oqova suv xizmatlari, avtomobil yo‘llari va

boshqa yo‘nalishlar) bilan ta’minlash bo‘yicha muammoli masalalarni aniqlaydi va ularni yechimi yuzasidan chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

- tuman darajasidagi muammolarni aloqador bo‘lim hamda tashkilotlar bilan birgalikda hal etish choralarini ko‘radi;

- respublika va viloyat darajasidagi muammolarni umumlashtirib, tegishli vazirlik va idoralar bilan yechimi bo‘yicha ishlarni tashkil etadi.

3. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari B.Xasanov zimmasiga yuklansin.

**Tuman hokimi**



**BOZOROV XABIBULLA.SHERDONAQULOVICH**

Uzun tuman hokimining
2024-yil 2-avgustdagi
257-8-118-Q/24-son qaroriga
1-ilova

**Uzun tuman bo‘yicha sanoat salohiyatini oshirish hamda sanoat korxonalari bilan ishlashnning monitoring tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha**

# NAMUNAVIY ISHCHI GURUHI TARKIBI

| № | F.I.Sh | Lavozimi |
|---|---|---|
| 1. | B.Xasanov | Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari, ishchi guruhi rahbari |
| 2. | X.Rasulov | Tuman hokimining investitsiyalar, sanoat va savdo masalalari bo‘yicha o‘rinbosari, ishchi guruh rahbari o‘rinbosari |
| 3. | Lavozimiga ko‘ra | Tuman Savdo sanoat palatasi tuman bo‘limi boshlig‘i, ishchi guruh rahbari o‘rinbosari |
| 4. | A.Xushvaktov | Soliq inspeksiyasi boshlig‘i o‘rinbosari |
| 5. | B.Baratov | Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i |
| 6. | M.Xayrullayev | Statistika bo‘limi boshlig‘i |
| 7. | X.Turdiyev | “Hududgaz ta’minot” tuman bo‘limi rahbari |
| 8. | A.G‘affarov | “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ tuman bo‘limi rahbari |
| 9. | Sh.Mengnarov | Soliq inspeksiyasi mas’ul xodimi |
| 10. | I.Xudayarov | Iqtisodiyot va moliya bo‘limi mas’ul xodimi |
| 11. | E.Xusanov | ATB “Agrobank” tuman filialli boshqaruvchisi |
| 12. | S.Shukurov | BXM “Xalqbank” tuman filialli boshqaruvchisi v.b |
| 13. | A.Usmanov | BXM “Mikrokreditbank” tuman filialli boshqaruvchisi |
| 14. | N.Berdiyev | Kambag‘allikni qisqartirish va aholi bandligiga ko‘maklashish boshlig‘i o‘rinbosari |

| | | |
|---|---|---|
| 15. | F.Abdullayev | Tuman hokimligining iqtisodiy majmua bosh mutaxassisi |